

**Navoiy Davlat Pedagogika
Instituti „Ingliz tili va
adabiyoti“ fakulteti , Zoyirova Dilfuza
Xayriddinovna taqrizi ostida**

**Haydarova Aziza Nabijon qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti, Ingliz tili va
adabiyoti fakulteti
4- bosqich talabasi
Telefon raqami: +998 90 2362520
E-mail: azizahaydarova20@gmail.com**

MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARIDA MILLIY G‘URUR

ANNOTATSIYA: Shoir borki, ijod ahli borki, o‘z vatanini , uning go‘zalligi va ta’rifini keltirib she’rlar bitgan va ijodida tarannum etgan. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf bu mavzuni yangicha qirralarini ochib, juda samimiyl, oddiy va ravon, xalqning diliga yaqin, bir o‘qishdayoq yod bo‘lib, shiorlarga aylana olgan she’riyat olami yaratib ketdi. Xususan, hozirgi maqolada shoirning she’rlari tahlil qilinar ekan, ulardagi o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan fazilatlar milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ulariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Vatan, milliy g‘urur, xalqchillik, qadr-qimmat, milliylik.

NATIONAL PRIDE IN THE POEMS OF MUHAMMAD YUSUF

ABSTRACT: Muhammad Yusuf, the Peoples’ poet of Uzbekistan, opened new aspects of unique verse, created a world of poetry that was very sincere, simple and fluent, close to the hearts of the people, memorized in one reading, and turned into slogans. The great love of the country and its beauty, the faithfulness of sonness to the country – are based on the poems of the poet. Particularly, while analyzing the poems of the poet in this article, attention is paid to the particular characteristic attributes of the Uzbek people, the feelings of national pride and dignity.

Keywords: Motherland, national pride, nationalism, dignity, nationality.

НАЦИОНАЛЬНАЯ ГОРДОСТЬ В СТИХИЯХ МУХАММАДА ЮСУФА

АННОТАЦИЯ: Мухаммад Юсуф, народный поэт Узбекистана, открыл новые грани стиха, создал мир поэзии очень искренний, простой и стройный, близкий сердцу народа, запоминаемый в одном чтении, превращавшейся в лозунги. Великая любовь к родине и ее красоте, сыновья верность родине – всё это в основе стихов поэта. В частности, при анализе стихов поэта в данной статье уделяется внимание особым характерным чертам узбекского народа, чувствам национальной гордости и достоинства.

Ключевые слова: Родина, национальная гордость, национализм, достоинство, национальность.

Sen - shoxlari osmonlarga

Tegib turgan chinorim,

Ota desam,

Og‘lim deb,

Bosh egib turgan chinorim,

Bo‘ynimdagи iftixorim,

Bo‘ynimdagи tumorim,

O‘zing mening ulug‘lardan

Ulug‘imsan,Vatanim! [1, 12]

KIRISH

Vatan mavzusidagi she’rlarning barchasini ulkan bir tog‘ deb olsak, Muhammad Yusufning ijodidagi yurt haqidagi she’rlarni ana shu tog‘ning eng cho‘qqisidagi viqorli tog‘ga yarashgan oppoq qordek mangu yorug‘lik va nur tarata olgan poklik timsoliga, buyuklikda salobati zabardast, ammo kamtarlik bobida kapalaklarga, lola-yu chechaklarga makon yam-yashil adirlarga mengzash mumkin. Shoiring quyidagi misralari bunga yaqqol misol :

Shoir shunday ko‘pki, ularga yer tor,

Hammasi mashhur va hammasi nomdor,

Ulug‘vor, ularga yetmoq ko‘p dushvor,

Ammo ular oyga bosib yuzini

Turganda osmonning bag‘rida ilk bor

Biz olib borgaymiz tuproq isini,

Gulday dimog‘iga tutamiz, qizim,

Biz hali hammadan o‘tamiz , qizim!... [2, 93]

ADABIY TAHLIL

Muhammad Yusuf she‘riyatining har misrasidan milliylik nafasi ufurib turadi. Uning ijodida o‘zbekona ohang bilan birga , millatimizga xos bo‘lgan, ko‘pchilik uchun ko‘zga ilinmas va sodda tuyulgan milliy elementlardan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Jumladan, "tandir", "qadoqqo‘l", "tolko‘cha", "jilg‘a", "bo‘tana suv", "loyqa suv", "do‘ppi", "guvalak", "bedapoya", " handalak", "yaydoq dala", " beqasam chopon", "bukri tuya", " to‘pori", "yantoq" va hokazolar. Ushbu so‘zlar xalq turmush tarziga singib ketgan narsalarni ifodalagani sababli shoir she‘riyatning yanada xalqchilligini ta’milagan.

Do‘ppi kiymay qo‘ydi odamlar,

Bir shoir, bir nosirdan boshqa.

Sochlар silliq, silliq qadamlar,

U og‘irlik qilyapti boshga... [2, 10]

Ko‘rgim kelar toshni sahroda kuygan,

Va **bukri tuyani yantoqqa** to‘yan,

Jayronning oldiga qalandar qo‘yan –

Bir bog‘lam poyani ko‘rgim keladi. [1, 93]

Shoir o‘z Vatanini, jonajon O‘zbekistonni qalamga olar ekan, uni har nedan ustun qo‘ya oladi. Aslida "**Rimni alishmasman bedapoyangga**", "**Parijning eng go‘zal restoranlarin, Bitta tandiringga alishmasman men**" – deb ayta olishning o‘zi mahorat, jasorat.

O, ota makonim,

Onajon o‘lkam,

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.

Senday mehribon yo‘q,

Seningdek ko‘rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga. [1, 267]

MUHOKAMA

Shoir xalqning dardi, uning sha’ni, qadr-qimmati va obro‘- e’tiborini yuksaltirish, bu yo‘lda barchani ahillik, birdamlikka chorlash va vatanparlik tuyg‘usini yuksak darajada singdira olishning nozik tomonlarini ochib bera olgan va hatto buni qo‘shiqchilik san’ati orqali keng ommaga yetib borishiga zamin hozirlagan. Muhammad Yusuf ijodidan foydalanib, vatanga muhabbatli, sodiq, fidoyi farzandlarni tarbiyalash va ularda milliy g‘urur, iftixor, tug‘ilib o‘sgan yurtdan faxrlanish, unga munosib bo‘lish tuyg‘ularini singdirishga judayam qo‘l keladi.

Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,

Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana.

Xalq bo‘lishga qaddi sendek kim bor yana,

Moziyni yod etay desang - xalq bo‘l, elim. [2, 40]

Muhammad Yusuf ijodiga nazar tashlasak, unda tabiatni sevish, mo‘jizalar koshonasi olamga, go‘zallikka oshnolikni ko‘ramiz. Atrofidagi tabiatni borligicha seva olish va uni jozibalarini ko‘rsata bilishda, shoir, Muhammad Yusuf ezbeglik ijodkorining hissasi katta. Shoir ijodida qo‘llangan gullar, qushlar va daraxtlar nomiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning har birida milliy ruh ufurib turganini guvohi bo‘lamiz: **yalpiz, rayhon, lola, lolaqizg‘aldoq, momoqaymoq, qizilgul, sunbul, kapalak, qaldirg‘och, burgut, qumri, to‘ti, o‘rdak, g‘oz, turnalar, laylak, lochin, chinor, tol, majnuntol, bukri jiyya** va hokazo.

Qizg‘aldoq‘im, qirdan bo‘lak koshonang yo‘q,

Kokil yoysang, yerdan bo‘lak toshoynang yo‘q.

O‘ksib-o‘ksib turganingda o‘zim borib,

Peshonangdan o‘pay desam, peshonang yo‘q... [1.40]

Tug‘ilgandan men sho‘rlikning bag‘rim qon,

Bir jismimda talashadi ikki jon

Jon talashsam, tepada charx urgan ul,

Kapalaklar odamlardan mehribon. [1, 43]

Azaldan o‘zbek xalqi ertak va rivoyatlarida alohida o‘rin tutgan timsol bu- afsonaviy ot timsoli bo‘lgan. Avvolo, insonga yo‘ldosh, safarlarda unga asosiy yordamchi, qolaversa, mardlik, yuksak parvoz timsoli. Mashhur **Boychipor**, **G‘irkо‘k**, **Jiyronqush**, **G‘irot** otlarining uchar qanotlari, egasi uchun beminnat yordami avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Muhammad Yusufning she‘rlarida ham ot timsoliga alohida urg‘u berilgan:

Oq tulporim bor edi,

Beklar unga zor edi.

Og‘aynilar, ot menga

Ham do‘st-u ham yor edi. [2,126]

Saman, yo‘rg‘a, qulun, toychoq, G‘irot, oq tulpor kabi otlarning turini nomga olish bilan birga, yigitlarning shijoatli, oriyatli, g‘ururli va o‘zbekona lavzi halol xalq ekanligini ta’kidlagan.

Har qanday millatni ma’naviy darajasini belgilashda uning urf-odatlari, qadriyatları, marosim va an’analaring tutgan o‘rni beqiyos ahamiyat kasb etadi. Mehmondo‘stlik, kattalarga hurmatda, kichiklarda izzatda bo‘lish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, e’tiborning ko‘rsatilishi o‘zbek oilalarida ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi. Shoir bunga ham to‘xtalib o‘tar ekan, shunday misralarni yozadi:

Momolari tetik yuzga kirsa ham,

Bobolari qaysi yigitlardan kam?

Nabirasi bo‘lsa bitta uyga jam,

To‘sak etmay to‘nin to‘saydi o‘zbek.

Kindik qoni tomgan tuproq unga - shon,

Kerak bo‘lsa, beso‘z baxsh etar u jon,

Ko‘krakka urmaydi: Vatan deb, Vatan!

Alpomish o‘g‘longa o‘xshaydi o‘zbek.

XULOSA

Darhaqiqat , shoir aytganidek ,Vatan uchun beso‘z jonin baxsh etadigan mardu jasur o‘g‘lonlari, Alpomish-u Jaloliddinlari bor bo‘lgan bu yurtning farzandi bo‘lish faxr va iftixor baxsh etadi. Shunday yurtga munosib bo‘lish va uni yanada gullab-yashnashiga hissa qo‘sish barchaning burchi sanaladi. Shoir Muhammal Yusuf ana shu faxrni qalban va ruhan tom ma’noda his eta olgan va yurakdan jo‘sib misralarga solib vatandoshlariga ilingan ijodkor sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Yusuf. Saylanma. “Sharq” nashriyoti. Toshkent: 2004. 288 bet.
2. Muhammad Yusuf . Bevafo ko‘p ekan... “O‘zbekiston” NMIU. Toshkent: 2018. – 136 bet.
3. Muhammad Yusuf. Xalq bo‘l, elim. “O‘zbekiston” NMIU. Toshkent: 2017. – 288 bet.